

# Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil yanvar– iyun holatiga

## RAOAMLAR:

- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **690** taga o'sdi
- Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarining ulushi **4,5 %** foizni tashkil etdi
- Tugatilgan korxonalariga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **671** taga oshgan.


2018 yilning yanvar-iyun oyida Namangan viloyatida 1758 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 9,0 foizga ko'pdir.

Shuningdek faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 47,3 % ga oshgan hamda ularning soni 349 tani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 804 ta (4,0 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 20756 tani tashkil etgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Namangan shahrida (38,7%), Chust tumanida (8,0%), Namangan (7,2%) va Uychi (6,0) tumanlarida kuzatilmoqda.


## Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda



**Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar  
va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 iyul holatiga)

	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlikda	jamiga nisbatan %	birlikda	jamiga nisbatan %
<b>Namangan viloyati</b>	<b>21741</b>	<b>100,0</b>	<b>20756</b>	<b>100</b>
Namangan shahar	8487	39,0	8026	38,6
Mingbuloq tumani	869	4,0	860	4,1
Kosonsoy tumani	1234	5,7	1189	5,7
Namangan tumani	1566	7,2	1496	7,2
Norin tumani	853	3,9	826	4,0
Pop tumani	1163	5,3	1091	5,3
To'raq'org'on tumani	1322	6,1	1239	6,0
Uychi tumani	1252	5,8	1239	6,0
Uchq'org'on tumani	1118	5,2	1099	5,3
Chortoq tumani	1073	4,9	1025	4,9
Chust timani	1753	8,1	1659	8,0
Yangiq'org'on tumani	1051	4,8	1007	4,9

**Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlar va fao'liyatsizlarning ulushi, % da**




Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 95,5 % ni, shu bilan birga jami korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 4,5 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda va bu ko'rsatkich esayil boshiga nisbatan taqqoslanganda 0,7 f.p. kamaygan




2018 yil yanvar-iyun holatiga 1758 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 9,0 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Namangan shaxrida (600 ta), Chust (144 ta), Uychi (130 ta), Mingbuloq (117 ta), Uchq'org'on (113 ta), Namangan (108 ta), To'raq'org'on (102 ta), Norin (98 ta), Pop (92 ta) tumanlarida tashkil etilgan. Eng kam esa Yangiq'org'on (81 ta), Chortoq (86 ta), Kosonsoyda (87 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

### Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi sanoatda (490 ta), boshqa turlarda (433 ta), savdoda (358 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (168 ta) va qurilishda (116 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (25 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (43 ta), yashash va ovqatlanishda (55 ta) hamda tasish va saqlashda (70 ta) tashkil etilgan.

### Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan faoliyat ko'rsata yotgan korxonalarining ulushi savdoda (-1,5 f.p), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (-0,4 f.p), qurilishda (-0,2 f.p.) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (-0,1 f.p.) kamayganligi, buning natijasida sanoatda (+1,4 f.p.), boshqa turlari (+0,5 f.p.) hamda tashish va saqlashda (+0,3 f.p dan) ulushining o'sishiga olib keldi.


**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan ulushi, foiz punktida**

Iqtisodiy faoliyat turlari nomi	01.07.2017 y.	01.07.2018 y.	farqi (+-)
Savdo	25,0	23,5	-1,5
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	2,7	2,3	-0,4
Qurilish	7,5	7,3	-0,2
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	7,4	7,3	-0,1
Sanoat	18,3	19,7	1,4
Boshqa turlari	30,2	30,7	0,5
Tashish va saqlash	3,4	3,7	0,3
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	4,0	4,0	-
Axborot va aloqa	1,5	1,5	-

**Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari).**


2018 yil 1 iyul holatiga 16575 dan oshiq korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 5792 ta, oilaviy korxonalar – 287 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar–9952 ta, aksiyadorlik jamiyatlari–28 tani va boshqa tijorat korxonalar 516 tani tashkil etadi.

## Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar-xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tashkiliy huquqiy shakllari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




2018 yil 1 iyul holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 113 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 17 taga yoki 17,7 % ga o'sgan. Shuningdek, Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalaridan 79 tasi qo'shma korxonalar, 34 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda






### Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar 121 tani tashkil etib ularning asosiy qismi Namangan shahar 55 ta (45,5%), Uychi va Pop tumanida 9 tadan (7,4%), Kosonsoy va Chortoq tumanlarida 8 tadan (5,8 %), Namangan va Chust tumanlarida 7 tadan (5,8 %), To'raq'org'on tumanda 6 ta (5,0%) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Yangiqo'rg'on tumani 5 ta (4,1 %), Norin, Uchq'org'on tumanlarida 3 ta (2,5%), 1 ta (0,8%) Mingbuloq tumani hissalariga tog'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

### Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning hududlar kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 iyul holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 83 ta (73,4%), savdoda 11 ta (9,7%), boshqa turlarida esa 9 ta (8,0%) tashkil qilgan, eng kamlari esa tashish va saqlashda 1 ta (0,9%), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 5 ta (4,4%), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 2 tadanni (1,8%) tashkil qilgan. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa tashish va saqlash faoliyat turiga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da**



2018 yilning yanvar-iyun oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarining soni 13 tani tashkil qilgan. Bu korxonalar Namangan shahar, Kasonsoy, Namangan, Chortoq va Yangiqo'rg'on tumanlarida ro'yhatdan o'tganligini ko'rish mumkin.


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, sanoatda 8 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.



## Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

2018 yil 1 iyul holatiga Namangan viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 16477 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 iyul holatiga qaraganda 2,8 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi ya'ni 6833 tasi (41,5 %) Namangan shahriga, 1321 tasi (8,0 %) Chust tumaniga, 1260 tasi (7,6 %) Namangan tumaniga, 975 tasi (5,9 %) Uychi tumaniga hamda 952 tasi (5,8 %) To'raqo'rg'on tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.


### Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 16477 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 4857 tasi (29,5%)—savdoda, 4061 tasi (24,6 %) - sanoatda, 1505 tasi (9,1 %) - qurilishda, 1503 tasi (9,1 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 818 tasi (5,0 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 752 tasi (4,6 %) - tashish va saqlashda, 298 tasi (1,8 %) - axborot va aloqa sohasida, 376 tasi (2,3 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 2307 tasi (14,0 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.




## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da




2018 yil yanvar-iyun holatiga 1426 taga kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 6,9 foizga kam. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Namangan shahrida (508 ta), Chust (114 ta), Uychi (112 ta) va Namangan va To'raqo'rg'on tumanlarida (87 tadan) tashkil etilgan. Eng kam Uchqo'rg'on (82 ta), Mingbuloq va Norin (80 tadan), Pop (70 ta), Yangiqo'rg'on (66 ta) hamda Choroq tumanlarida (64 ta) tashkil etilgan.

## Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 23,5 % savdoda, 19,7 % sanoatda, 7,3 % dan qurilish hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 4,0 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 3,7 % tashish va saqlash, 1,5 % axborot va aloqa, 2,3 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 30,7 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da**



(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda






## Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2018 yilning 1 iyul holatiga 293 tani tashkil etib, ulardan 287 tasi yoki 98,0 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilninga shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 1,4%ga oshganligini ta'kidlash lozim.

### Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 46,3 % yoki 133 tasi sanoat, 16,4 % yoki 47 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 13,2 % yoki 38 tasi savdo, 9,8 % yoki 28 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 0,7 % yoki 2 tasi qurilish, 1,7 % yoki 5 tasi axborot va aloqa, 2,1 % yoki 6 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 9,8 % yoki 28 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Namangan viloyati statistika boshqarmasi  
Statistik registrlarni yuritish bo'limi

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat  
registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida  
tayyorlangan

Nashr uchun mas'ul: **A.Siddiqov**  
(0369) 227-84-96